

Sherzod Sharipov

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Sherzodsharipov@internet.ru

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI TA'LIM JARAYONIGA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarining ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zarurati, ushbu texnologiyalarning samaradorlik darajasi va ularning amaliyotdagi qo'llanish holatlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada yangi metodik yondashuvlar, ularning bolalar ijodkorligiga ta'siri, madaniy-estetik shakllanishga bo'lgan ta'siri va milliy madaniy merosni asrashdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, madaniyat, san'at, pedagogika, texnologiya, musiqa, maktab.*

APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS

***Abstract.** This article analyzes on a scientific basis the need to introduce modern pedagogical technologies into the educational process of children's music and art schools, the level of effectiveness of these technologies and the cases of their application in practice. The article also deeply analyzes new methodological approaches, their impact on children's creativity, their impact on cultural and aesthetic formation, and their role in preserving the national cultural heritage.*

***Keywords:** education, culture, art, pedagogy, technology, music, school.*

Hech kimga sir emaski, hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib kamol topishi jiddiy masaladir. Bunday muhim jarayonda san'at va madaniyatning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda ta'lim tizimi

global o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot fonida yangicha yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, bolalar musiqa va san'at maktablari kabi ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida pedagogik yondashuvlarning zamonaviylashtirilishi – yosh avlodning estetik didini shakllantirish, ijodkorlik salohiyatini ochish va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Bolalarni yoshlik chog'idan, o'zi qiziqqan sohaga yo'naltirish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida: “San'at ma'naviy boy avlodni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. San'atga mehrni bolalikdan shakllantirish zarur”, – deya ta'kidlaydi [1]. Ayniqsa, bolalar musiqa va san'at maktablari orqali yosh avlodning musiqa va san'at turlariga qiziqishi, qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'alariga, milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy hamda ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirish dolzarb masalaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari bilan ushbu maktablar faoliyatini takomillashtirish, ularni zamonaviy vositalar bilan jihozlash, yoshlarni keng jalb qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarorida ham quyidagicha belgilab qo'yilgan: “2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin” [2].

Hozirgi kunda Madaniyat vazirligi tizimida 365 ta ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Xususan, 325 ta “Bolalar musiqa va san'at maktablari”, 29 ta “Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari”, 2 ta “Malaka oshirish markazi”, 2 ta “Kollej”, 5 ta “Oliy ta'lim muassasasi” hamda ularning 3 ta filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur ta'lim muassasalarida 106 mingdan ortiq o'quvchi-talabalarga, 18 mingdan ortiq professor-o'qituvchilar tomonidan ta'lim berib kelinmoqda.

Raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, bolalar musiqa va san'at maktablari madaniyat ta'lim tizimining salmoqli qismini egallaydi. Shu bois, bu yerda tahsil olayotgan iste'dodli yoshlarni san'at maktablariga keng jalb qilish uchun yangicha, interaktiv va innovatsion yondashuvlar zarur. Bu jarayonda interfaollik, shaxsga yo'naltirilganlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), muammo asosida o'qitish kabi metodik yondashuvlar asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchi uchun ham ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Bunday tashabbus va loyihalardan bir nechtasini sanab o'tish mumkin:

I. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi va ularning mohiyati.

Pedagogik texnologiyalar – bu maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan va natijaga olib keladigan ta'lim jarayoni bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlik asosida kechadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar deganda esa, interfaol, ijodiy va shaxsga yo'naltirilgan metodikalar, AKT vositalari, modulli o'qitish tizimlari, loyihaviy yondashuv, gamifikatsiya, va tarmoq pedagogikasi kabi ilg'or metodlar tushuniladi. Bularning barchasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, san'at asarlarini tahlil qilish, musiqa yoki tasviriy san'atda o'z estetik qarashlarini ifodalashga yo'naltirilgan faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

II. Bolalar musiqa va san'at maktablarida mavjud muammolar.

So'nggi yillarda ta'lim sifati oshishiga qaramay, bolalar musiqa va san'at maktablarida quyidagi muammolar mavjudligini kuzatish mumkin:

- 1). An'anaviy o'qitish uslublarining ustunligi, buning natijasida ijodiy fikrlashga imkon bermaslik;
- 2). O'quvchilarning faolligini oshiruvchi metodlarning kamligi, passiv o'rganish muhitining ustunligi;
- 3). Zamonaviy texnologiyalar uchun zarur texnik infratuzilmalarning yetarli emasligi;

4). O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi;

5). O'quv dasturlarining moslashuvchan emasligi, bu esa texnologiyalarni integratsiyalashda to'siq bo'lmoqda.

III. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari.

Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ko'plab afzalliklari mavjud:

1) O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Masalan, raqamli musiqiy dasturlar orqali o'quvchilar o'z kompozitsiyalarini yaratishlari mumkin;

2) Mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa ijodiy tahlil va baholashga olib keladi;

3) O'quvchilarning san'at fanlariga qiziqishini oshiradi, chunki texnologiyalar orqali mashg'ulotlar ko'rgazmali va interaktiv tarzda olib boriladi;

4) Onlayn resurslar, 3D modellash, virtual musiqa asboblari va interaktiv galereyalar orqali yangi pedagogik tajriba yaratiladi;

5) Darslar mobaynida videodarslar, QR-kodlar, onlayn testlar, audio-analiz vositalaridan foydalanish orqali shaxsiylashtirilgan yondashuv amalga oshiriladi.

IV. Amaliy tajribalar: eksperimental sinovlar asosida 2024–2025-o'quv yili davomida Toshkent shahridagi bir nechta musiqa va san'at maktablarida multimedia vositalari asosida o'qitish tajribalari olib borildi. Musiqa nazariyasi fanida “Sound visualization” metodi orqali o'quvchilar tovush balandligi, ritm va tembrni tasavvuriy ko'rinishda o'rganishdi. Bu yondashuv o'quvchilarning 84 foizining fanni chuqurroq tushunishiga olib keldi.

Tasviriy san'at yo'nalishida esa, “Krita” va “ArtRage” kabi raqamli grafik dasturlar orqali rang tasviri, soyalar, harakat va fazoviy tasvir vositalarini o'rgatish muvaffaqiyatli tajriba sifatida qayd etildi. O'quvchilarning 72 foizi kompozitsion fikrlash ko'nikmasini mustahkamlab, o'z loyihalarini onlayn galereyalar orqali namoyish eta oldi.

V. Mahalliy madaniyat va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda milliy qadriyatlarni unutmaslik lozim. Shu bois, "Interaktiv maqom darslari" loyihasi doirasida an'anaviy cholg'u asboblari, maqom turlari haqida QR-kodlar yordamida ma'lumotlar berilib, ularni mobil qurilmalar orqali tinglash va o'rganish imkoniyati yaratildi. Bu o'quvchilarda milliy musiqa asarlarini anglash, solishtirish va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirdi.

Shuningdek, milliy tasviriy san'at namunalarini raqamlashtirish va ularni 3D formatda tahlil qilish orqali san'at tarixini interaktiv tarzda o'rganish imkoniyati yaratildi. Bu kabi yondashuvlar o'quvchilarning milliy g'urur hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

VI. Pedagog kadrlar malakasini oshirish masalasi

Zamonaviy texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishning muhim sharti bu – o'qituvchilarning yuqori malakali va innovatsion fikrga ega bo'lishidir. Shu bois, respublika darajasida maxsus "Digital Art Pedagogy" (Raqamli san'at pedagogikasi) dasturini ishlab chiqish dolzarbdir. Bu dastur doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) O'qituvchilar uchun multimedia texnologiyalari asosida dars rejalari tuzish bo'yicha treninglar;
- 2) San'at va musiqa fanlari bo'yicha zamonaviy baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- 3) Onlayn seminarlar va vebinarlar orqali tajriba almashish;
- 4) Hududiy san'at maktablari o'rtasida tarmoq integratsiyasini kuchaytirish;
- 5) Pedagoglar uchun "Digital portfolio" yuritish amaliyotini joriy qilish.

VII. Strategik takliflar va istiqbolli yo'nalishlar

Kelgusida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilishi zarur:

- 1) Har bir bolalar musiqa va san'at maktabida "Interfaol darslar laboratoriyasi" tashkil etish;
- 2) O'quv dasturlariga "San'atda AKT" modullarini kiritish;
- 3) Virtual reallik (VR) texnologiyalari asosida 3D galereyalar va konsert zallarini yaratish;

4) O'quvchilarning ijodiy ishlarini onlayn platformalarda taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish;

Ijodiy o'quv jarayonlarini baholashda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish. Raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali musiqa va san'at darslarini yanada qiziqarli qilish mumkin. Masalan, musiqa va tasviriy san'at bo'yicha onlayn darslar, mobil ilovalar, interaktiv platformalar orqali bolalar bilim va ko'nikmalarni masofadan egallash imkoniga ega bo'ladilar. YouTube, Telegram kabi platformalarda mahorat darslarini joylashtirish ularga keng auditoriyaga chiqish imkonini yaratadi.

Tanlovlar, ko'rik-tanlovlar va festivallar orqali iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularning iste'dodini yuzaga chiqarish, milliy va zamonaviy san'at turlarini rivojlantirish, musiqiy merosni o'rganish va uni jahon miqyosida keng targ'ib etishga ko'maklashish mumkin.

Shu bilan birga, bunday tadbirlar yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantiradi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro miqyosdagi tanlovlar madaniy aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa turli davlatlardan ishtirokchilarni birlashtirgan ijodiy muhit, hamkorlik va tajriba almashuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Yosh ijrochilar iste'dodi va ijodiy salohiyati bo'yicha yanada rivojlanish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablariga yoshlarni keng jalb qilish, musiqa va san'atga qiziqishini oshirish uchun umumta'lim maktablari va san'at maktablari o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-391-sonli qarori muhim tashabbusdir.

Xususan, qarorda: "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda 2025-yil 1-apreldan boshlab "Turon" maktab teatrining ijobiy tajribasi asosida maktablarda "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etib, jamoalar o'rtasida

“Iqtidor maktab ansambli” respublika tanlovini o‘tkazish belgilab qo‘yilgan”
[3], – deyilgan.

Qolaversa, bolalar musiqa va san’at maktablariga yoshlarni keng jalb qilishda ota-onalarning roli ham beqiyosdir. Farzandining qiziqishlarini biladigan va uni qo‘llab-quvvatlaydigan ota-onalar san’at maktablarining ishonchli hamkoriga aylanishi kerak. Ota-onalarga ochiq darslar, bolalarning chiqishlari orqali san’atning tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatish ularni rag‘batlantirishi shubhasizdir.

Bolalarni san’atga qiziqtirish va bu sohaga jalb qilish – bu nafaqat ularning iste’dodini yuzaga chiqarish, balki ularni ma’naviy boy, estetik didga ega, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/03/art-school/>
2. <https://lex.uz/ru/>
3. <https://lex.uz/ru/>

